



HUDUDIIY RIVOJLANISH SALOHİYATINI BAHOLASH VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

PhD, dots. **Ma'murov Baxtiyor**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi,
Oriental universiteti
ORCID: 0000-0002-7188-024X
mamurov88@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada hududiy rivojlanish salohiyatini baholash va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishning ilmiy asoslari yoritilib, "hududiy salohiyat" tushunchasi tabiiy, iqtisodiy, demografik, infratuzilmaviy hamda institutsional komponentlarning o'zaro integratsiyasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda hududiy salohiyatning dinamik xarakteri asoslanib, uni bir martalik hisob-kitob emas, balki muntazam monitoring va qayta baholashni talab qiluvchi jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, hududlar o'rtasidagi tafovutlar (konsentratsiya, ixtisoslashuv, investitsiya oqimlari, tarmoqlar diversifikatsiyasi va ekologik cheklovlar) misolida differensial strategik yondashuv zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Jadval tahlillari hududiy iqtisodiy transformatsiya jarayonlari va "o'sish nuqtalari" shakllanishini ko'rsatib, salohiyatni kompleks baholash strategik ustuvorliklarni aniq belgilash, resurslarni manzilli taqsimlash va barqaror rivojlanishning muvozanatli modelini ta'minlash uchun metodologik po'ydevor ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: hududiy salohiyat, barqaror rivojlanish, hududiy strategiya, kompleks baholash, ko'p mezonli indeks, tarmoqlar diversifikatsiyasi, iqtisodiy ixtisoslashuv, investitsiya oqimlari, infratuzilmaviy salohiyat, hududlararo tafovutlar.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ПОТЕНЦИАЛА ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ СТРАТЕГИЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

PhD, доц. **Маъмуров Бахтиёр**

Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете,
Oriental университет

Аннотация. В статье раскрываются научные основы оценки потенциала территориального развития и формирования стратегий устойчивого развития. Понятие «территориальный потенциал» рассматривается как интегрированная система природных, экономических, демографических, инфраструктурных и институциональных компонентов, взаимосвязь которых определяет возможности долгосрочного устойчивого роста регионов. Обоснован динамический характер территориального потенциала и необходимость его регулярного мониторинга и переоценки в процессе стратегического управления. На основе анализа межрегиональных различий, структурных трансформаций экономики, инвестиционных потоков и отраслевой диверсификации показана целесообразность дифференцированного подхода

к формированию стратегий развития. Сделан вывод о том, что комплексная оценка потенциала территорий служит методологической основой для определения стратегических приоритетов, адресного распределения ресурсов и обеспечения сбалансированного устойчивого развития.

Ключевые слова: территориальный потенциал, устойчивое развитие, региональная стратегия, комплексная оценка, многокритериальный индекс, отраслевая диверсификация, экономическая специализация, инвестиционные потоки, инфраструктурный потенциал, межрегиональные различия.

SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR ASSESSING TERRITORIAL DEVELOPMENT POTENTIAL AND FORMULATING SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGIES

PhD, assoc. prof. **Mamurov Bahtiyor**

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics, Oriental University

Abstract. The article examines the scientific foundations for assessing territorial development potential and formulating sustainable development strategies. The concept of "territorial potential" is interpreted as an integrated system of natural, economic, demographic, infrastructural, and institutional components whose interaction determines the long-term sustainable growth of regions. The dynamic nature of territorial potential and the need for its continuous monitoring and reassessment within strategic governance are substantiated. Based on the analysis of interregional disparities, structural economic transformations, investment flows, and sectoral diversification, the study highlights the importance of a differentiated approach to regional development strategies. The findings confirm that a comprehensive assessment of territorial potential provides a methodological basis for defining strategic priorities, allocating resources efficiently, and ensuring balanced sustainable regional development.

Keywords: territorial potential, sustainable development, regional strategy, comprehensive assessment, multicriteria index, sectoral diversification, economic specialization, investment flows, infrastructural potential, interregional disparities.

Kirish.

Hududiy rivojlanish salohiyatini baholash va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish masalasi zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot va strategik boshqaruv nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, iqtisodiy raqobatning kuchayishi va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashuvi sharoitida hududiy salohiyatni kompleks tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. Chunki hududlarning tabiiy resurslari, iqtisodiy tarkibi, demografik imkoniyatlari va infratuzilmaviy ta'minlanganligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ularning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu bois hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda hududiy salohiyatni integrallashgan tizim sifatida baholash metodologik jihatdan dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi hududiy rivojlanish jarayonlarini faqat iqtisodiy o'sish bilan cheklab qo'ymasdan, ekologik muvozanat, ijtimoiy barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini ham qamrab oladi. Ushbu yondashuv hududiy salohiyatni baholashda ko'p omilli va ko'p mezonli tahlil usullarini qo'llashni talab etadi. Natijada hududiy rivojlanish salohiyati nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki investitsiya ko'rsatkichlari bilan, balki inson kapitali sifati, infratuzilma sig'imi, ekologik cheklovlar va institutsional muhit bilan uyg'un holda tahlil qilinadi. Bu esa hududiy strategiyalarni shakllantirishda reallik, moslashuvchanlik va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekistonda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya jalb etish imkoniyatlari, infratuzilma rivoji va demografik jarayonlar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu holat hududiy siyosatni differensial asosda olib borishni taqozo etadi. Ayrim hududlarda sanoat va xizmatlar sektori yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, boshqa hududlarda agrar yo'nalish ustunligi, infratuzilmaviy cheklovlar yoki ekologik muammolar iqtisodiy salohiyatning to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qilmoqda. Shunday sharoitda hududiy rivojlanish salohiyatini ilmiy asosda baholash va uning natijalariga tayangan holda barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirish, resurslarni samarali taqsimlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy adabiyotlarda hududiy salohiyat ko'pincha hududning iqtisodiy resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat omillari bilan izohlanadi. Biroq zamonaviy hududiy rivojlanish nazariyalari hududiy salohiyatni ko'p o'lchamli, tizimli va dinamik kategoriya sifatida talqin qiladi. U hududning tabiiy sharoitlari, iqtisodiy tarkibi, demografik xususiyatlari, infratuzilmaviy ta'minlanganligi hamda institutsional muhitining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Aynan ushbu omillarning birgalikdagi ta'siri hududning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Hududiy rivojlanish salohiyatini baholash va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish bo'yicha zamonaviy adabiyotlar, avvalo, hududiy tafovutlarning iqtisodiy-geografik ildizlarini ochib beradi. Jahon bankining World Development Report 2009: Reshaping Economic Geography hisobotida hududiy rivojlanish "zichlik, masofa va bo'linish" (density, distance, division) omillari orqali tushuntiriladi va iqtisodiy faoliyatning makon bo'yicha notekis konsentratsiyasi tabiiy jarayon ekani, biroq infratuzilma va institutsional siyosatlar orqali uning salbiy oqibatlarini yumshatish mumkinligi asoslanadi.

Konovalenkov (2020) hududiy barqarorlikni baholash uchun qisqa indikatorlar majmuasiga asoslangan tezkor uslubni taklif qiladi. Bunda asosiy maqsad murakkab statistik tizimlarni soddalashtirish va qaror qabul qiluvchilarga tezkor axborot berishdir.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining amaliy-mezoniy bazasi esa BMTning 2015-yildagi Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development rezolyutsiyasi bilan mustahkamlangan bo'lib, unda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) global maqsad sifatida belgilangan va "odamlar, sayyora va farovonlik" uchligi doirasida ko'p komponentli yondashuv talab qilinadi.

Sachs (2015) BRMni iqtisodiy o'sish, ijtimoiy inklyuziya va ekologik cheklovlar bilan birgalikda ko'radigan konseptual qarashlarni chuqurlashtirib, strategiyalarni faqat ishlab chiqarish o'sishi emas, balki uzoq muddatli barqarorlik mezonlari asosida loyihalash zarurligini ta'kidlaydi.

Hududiy siyosat va ko'p darajali boshqaruv masalalarida Yevropa Komissiyasining 7th Report on Economic, Social and Territorial Cohesion (2017) hisobotida Yevropa Ittifoqining Integratsion siyosati (cohesion policy) hududlararo tafovutlarni kamaytirish, investitsiyalarni manzilli yo'naltirish va natijadorlikni oshirish bilan bog'lab talqin qilinadi. OECDning OECD Regional Outlook 2019 hisobotida esa megatrendlar sharoitida hududlar kesimidagi nomutanosibliklarni boshqarish uchun "moslashuvchan va kuchli multi-level governance" zarurligi ko'rsatiladi.

BRMni hududiy darajaga moslashtirish bo'yicha OECDning A Territorial Approach to the Sustainable Development Goals (2020) hisobotida SDG/BRM indikatorlari mahalliy va mintaqaviy boshqaruv uchun lokalizatsiya qilinishi, ya'ni strategik rejalashtirish "hududiy ma'lumotlar - ko'rsatkichlar - boshqaruv qarorlari" zanjiri orqali yuritilishi asoslanadi.

Shaharlar va urbanizatsiya kontekstida UN-Habitatning World Cities Report 2022 hisobotida urban tizimlarning kelajagi barqaror iqtisodiyot, ijtimoiy tenglik va "yashil"

infratuzilma bilan bog'lanib, shahar infratuzilmasi va boshqaruv sifati hududiy salohiyatning hal qiluvchi determinanti sifatida ko'rsatiladi. Institutsional sifat mezonlarini mustahkamlashda esa SIGMA (OECD va Yevropa Ittifoqi hamkorligida) tomonidan yangilangan The Principles of Public Administration (2023) hujjati shaffoflik, hisobdorlik, siyosatni muvofiqlashtirish va davlat xizmatlari sifatini "o'lchanadigan tamoyillar" sifatida beradi - bu hududiy strategiyalarni amaliy ijroga bog'lashda metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda hududiy rivojlanish salohiyatini baholash va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini aniqlash maqsadida kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy-geografik, institutsional va tizimli tahlil usullarining integratsiyasiga asoslanadi. Hududiy salohiyatni baholashda tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda strukturaviy-funksional yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, hududiy tafovutlarni aniqlash va rivojlanish imkoniyatlarini baholashda statistik ma'lumotlar dinamikasi, tarmoqlar diversifikatsiyasi darajasi hamda investitsiya oqimlari tahlili asosiy analitik vosita sifatida qo'llanildi. Bu esa hududiy rivojlanish salohiyatini kompleks indikatorlar tizimi asosida baholash va ularning barqaror rivojlanish strategiyasidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida ko'p mezonli baholash yondashuvi qo'llanilib, hududiy salohiyat komponentlari o'rtasidagi sinergiya va nomutanosiblik darajasini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, yalpi hududiy mahsulot tarkibi, sanoat va xizmatlar sektori ulushi, demografik ko'rsatkichlar, infratuzilma rivoji va investitsiya faolligi kabi indikatorlar tizimli tahlil qilindi hamda ularning hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati baholandi. Metodologik jihatdan ushbu yondashuv hududiy rivojlanishni statik emas, balki dinamik tizim sifatida talqin qilishga asoslanadi, bu esa strategik boshqaruvda muntazam monitoring, teskari aloqa mexanizmlarini joriy etish va differensial hududiy siyosatni ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish jarayonida "hududiy salohiyat" tushunchasi markaziy ilmiy-kategoriyaviy o'rin egallaydi. Mazkur tushuncha hududning mavjud va potensial imkoniyatlarini aniqlash, ularni strategik maqsadlarga yo'naltirish hamda hududiy rivojlanish nomutanosibliklarini kamaytirishning metodologik asosi hisoblanadi. Shu bois hududiy salohiyatni biryoqlama, faqat iqtisodiy resurslar doirasida talqin qilish barqaror rivojlanish yondashuviga mos kelmaydi.

Iqtisodiy-geografik yondashuv nuqtai nazaridan hududiy salohiyat hududning makoniy joylashuvi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi, transport-geografik qulayligi va iqtisodiy faoliyatni joylashtirish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Hududning geografik o'rni ishlab chiqarish xarajatlari, logistika samaradorligi, ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli iqtisodiy-geografik omillar hududiy salohiyatning boshlang'ich va nisbatan inert komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida hududiy salohiyat faqat iqtisodiy o'sish imkoniyatlari bilan emas, balki ekologik muvozanatni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va avlodlararo manfaatlar muvozanatini hisobga olish bilan baholanadi. Bu yondashuv hududiy salohiyatni qisqa muddatli iqtisodiy foyda emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil qilishni talab etadi. Natijada hududiy salohiyat tushunchasi ekologik cheklovlar, demografik yuklama va infratuzilmaviy sig'im kabi omillar bilan boyitiladi.

Bizningcha, hududiy salohiyat - bu hududning tabiiy resurslari, iqtisodiy tarkibi, demografik imkoniyatlari, infratuzilmaviy ta'minlanganligi va institutsional muhitining o'zaro uyg'unlashuvi asosida barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish imkoniyatlari

majmuasidir. Ushbu ta'rif hududiy salohiyatning kompleks va integrallashgan mohiyatini aks ettiradi hamda uni strategik rejalashtirish jarayoniga bevosita bog'laydi.

Shu bilan birga, hududiy salohiyat statik holat emas, balki vaqt o'tishi bilan o'zgarib boruvchi dinamik tizim sifatida qaraladi. Investitsiya oqimlari, demografik jarayonlar, infratuzilma loyihalari va institutsional islohotlar hududiy salohiyatni kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli hududiy salohiyatni baholash bir martalik hisob-kitob emas, balki muntazam monitoring va qayta baholashni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.

Hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish jarayonida hududiy salohiyatni baholash markaziy metodologik bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki strategik rejalashtirishning samaradorligi bevosita hududning real imkoniyatlari, cheklovlari va rivojlanish resurslarining to'g'ri aniqlanganlik darajasiga bog'liq. Hududiy salohiyatni baholamasdan ishlab chiqilgan strategiyalar ko'pincha deklarativ xarakterga ega bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonida jiddiy muammolar yuzaga keladi.

Barqaror rivojlanish strategiyasi hududning faqat joriy iqtisodiy holatini emas, balki uning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini ham hisobga olishi lozim. Shu nuqtai nazardan hududiy salohiyatni baholash strategiyaning reallik, moslashuvchanlik va barqarorlik tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi. Baholash natijalari strategik maqsadlar va ustuvor yo'nalishlarni hududning tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy imkoniyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Hududiy salohiyatni baholash barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda, avvalo, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni aniqlashga yordam beradi. Turli hududlar resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, inson kapitali sifati, infratuzilma rivoji va institutsional muhit jihatidan sezilarli farqlarga ega. Ushbu tafovutlarni hisobga olmagan yagona yondashuvga asoslangan strategiyalar hududiy nomutanosibliklarni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shu sababli hududiy salohiyatni baholash strategiyani differensial va hududga moslashtirilgan tarzda ishlab chiqishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, hududiy salohiyatni baholash strategik ustuvorliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash jarayonida hududning qaysi omillari nisbatan kuchli, qaysilari esa rivojlantirishni talab qilishi aniqlanadi. Bu esa resurslarni taqsimlashda samaradorlikni oshirish, investitsiya siyosatini aniq yo'naltirish va davlat qo'llab-quvvatlash choralari manzilli amalga oshirish imkonini beradi. Natijada barqaror rivojlanish strategiyasi umumiy maqsadlar majmuasi emas, balki aniq asoslangan va amalga oshiriladigan hujjatga aylanadi.

Hududiy salohiyatni baholashning yana bir muhim jihati uning monitoring va baholash tizimi bilan uzviy bog'liqligidadir. Barqaror rivojlanish strategiyasi dinamik hujjat bo'lib, u tashqi va ichki omillarning o'zgarishiga mos ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Hududiy salohiyat ko'rsatkichlari strategiya ijrosini baholash, oraliq natijalarni tahlil qilish va zarur hollarda tuzatishlar kiritish uchun asosiy axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali strategik boshqaruvda teskari aloqa mexanizmi shakllanadi.

Hududlarning barqaror rivojlanishi alohida olingan salohiyat turlarining mavjudligi bilan emas, balki ularning o'zaro tizimli integratsiyasi va muvofiqlashtirilgan rivoji bilan belgilanadi. Bir salohiyat turining rivojlanish darajasi boshqalarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va aksincha, tizim ichidagi nomutanosiblik barqaror rivojlanish jarayonini cheklaydi. Shu sababli hududiy salohiyatni baholashda mazkur komponentlarni yagona tizim sifatida ko'rib chiqish metodologik jihatdan muhim hisoblanadi (1-jadval).

Hududiy salohiyatning har bir turi alohida mustaqil ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, ularning o'zaro uyg'un rivoji hududning barqaror rivojlanish darajasini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Yuqori tabiiy resurs salohiyatiga ega hududda infratuzilmaviy va institutsional sharoitlar yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, iqtisodiy salohiyat to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, hududiy salohiyatlarni baholashda ularni alohida indikatorlar majmui sifatida emas, balki o'zaro ta'sir qiluvchi yagona tizim sifatida ko'rib chiqish zarur.

**Hududlarning tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy
salohiyatlari o'rtasidagi tizimli bog'liqlik**

Salohiyat turi	Asosiy tarkibiy elementlar	Boshqa salohiyatlarga ta'siri	Barqaror rivojlanishdagi strategik roli
Tabiiy salohiyat	Yer, suv, foydali qazilmalar, iqlim, ekologik holat	Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining joylashuvi va ixtisoslashuvini belgilaydi; demografik joylashuvga ta'sir ko'rsatadi; infratuzilma sig'imini cheklaydi yoki kengaytiradi	Hududning ekologik cheklovlari va rivojlanish chegaralarini belgilash; resurslardan oqilona foydalanish asosida uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash; "yashil iqtisodi-yot" yo'nalishlarini shakllantirish
Iqtisodiy salohiyat	Hududiy yalpi mahsulot, sanoat va xizmatlar, investitsiyalar, tadbirkorlik	Demografik bandlikni oshiradi; infratuzilmaga talabni kuchaytiradi; tabiiy resurslardan foydalanish intensivligini belgilaydi	Hududning raqobatbardoshligini oshirish; iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash; barqaror iqtisodiy o'sish manbalarini shakllantirish
Demografik salohiyat	Aholi soni, mehnat resurslari, migratsiya, inson kapitali sifati	Iqtisodiy faoliyatni ishchi kuchi bilan ta'minlaydi; infratuzilmaga ijtimoiy yuklama yaratadi; tabiiy resurslardan foydalanish darajasiga ta'sir qiladi	Inson kapitaliga asoslangan rivojlanish modelini shakllantirish; mehnat bozorini muvozanatlashtirish; ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash
Infratuzilmaviy salohiyat	Transport, energetika, kommunal, raqamli va ijtimoiy infratuzilma	Iqtisodiy salohiyatni faollashtiradi; demografik joylashuv va migratsiyani boshqaradi; tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi	Hududiy integratsiyani kuchaytirish; iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlash; hududlararo tafovutlarni qisqartirish

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan.

Mazkur yondashuv barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda komplekslik va muvozanat tamoyillarini ta'minlaydi, hududlar kesimida differensial strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. O'zbekistonda hududiy rivojlanish darajalari o'rtasidagi tafovutlar barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Masalan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati iqtisodiy salohiyat, investitsiya jalb etish darajasi, infratuzilma rivoji va xizmatlar sektorining ulushi bo'yicha respublikaning boshqa hududlaridan sezilarli ustunlikka ega. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish va xizmatlar yuqori darajada konsentratsiyalashgan bo'lib, bu aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlamoqda. Biroq mazkur ustunliklar boshqa hududlar bilan solishtirganda hududiy nomutanosibliklarni kuchaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo viloyati va Jizzax viloyati kabi hududlarda tabiiy-iqlim sharoitlari, infratuzilmaning nisbatan rivojlanmaganligi va investitsiya faolligining pastligi iqtisodiy salohiyatning to'liq ro'yobga chiqishini cheklab kelmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik muammolar va suv resurslari taqchilligi iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini toraytiradi. Bu holat hududiy tafovutlarning faqat iqtisodiy emas, balki ekologik va ijtimoiy omillar bilan ham uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim viloyatlarda alohida salohiyat turlari mavjud bo'lsa-da, ularning tizimli uyg'unlashuvi yetarli darajada ta'minlanmagan. Masalan, Farg'ona viloyati va Andijon viloyati demografik salohiyat va mehnat resurslari bilan yuqori ta'minlangan bo'lsa-da,

infratuzilmaviy va investitsion cheklovlar tufayli ushbu imkoniyatlar iqtisodiy o'sishga to'liq aylantirilmayapti. Aholi zichligi yuqori bo'lgan hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish infratuzilma va sanoatni rivojlantirish bilan uyg'un holda olib borilmasa, ijtimoiy bosim va migratsiya jarayonlari kuchayadi.

Mazkur hududiy tafovutlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun yagona standart yondashuv emas, balki hududiy salohiyatga asoslangan differensial strategik boshqaruv zarur. Har bir hudud uchun uning tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida ustuvor yo'nalishlar belgilanishi lozim. Strategik boshqaruvning bunday yondashuvi resurslarni manzilli taqsimlash, hududlararo tafovutlarni qisqartirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish imkonini beradi.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini baholashda yalpi hududiy mahsulot (YAHM) asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. YAHM hududda yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmini aks ettirib, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatdagi ulushini aniqlash imkonini beradi. Yalpi hududiy mahsulot tarkibining tahlili hudud iqtisodiyotida qaysi tarmoqlar yetakchi ekanligini, qaysi yo'nalishlarda iqtisodiy faollik yuqori yoki past ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan YAHM tarkibi hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi va raqobat ustunliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat va xizmatlar tarkibining tahlili hamda tarmoqlar diversifikatsiyasi darajasini baholash hududiy iqtisodiy salohiyatning barqarorligini aniqlashga xizmat qiladi. Bir yoki ikki tarmoqqa haddan tashqari bog'liq hududlarda tashqi shoklar va kon'yunktura o'zgarishlariga sezgirlik yuqori bo'lib, bu iqtisodiy barqarorlikni zaiflashtiradi. Aksincha, sanoat va xizmatlar sohalari muvozanatli rivojlangan, tarmoqlararo diversifikatsiya yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy o'sish yanada barqaror va moslashuvchan bo'ladi. Shu sababli tarmoqlar diversifikatsiyasini baholash hududning uzoq muddatli iqtisodiy o'sish salohiyatini aniqlash va "o'sish nuqtalari"ni belgilashda muhim metodologik vosita sifatida qaraladi (2-jadval).

Jadval ma'lumotlari O'zbekiston hududlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ulushi va ularning 2022-2024 yillardagi dinamikasi hududiy iqtisodiy salohiyatda sezilarli tarkibiy siljishlar yuz berayotganini ko'rsatadi. Jumladan, Toshkent shahri yalpi ichki mahsulot ulushi bo'yicha 16,6 foizdan 19,3 foizga oshib, mamlakat iqtisodiy markazi sifatidagi pozitsiyasini yanada mustahkamlagan bo'lsa, Navoiy viloyatida sanoat mahsuloti ulushi 15,3 foizdan 16,5 foizga ko'tarilib, hududning sanoat ixtisoslashuvi kuchayganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida iqtisodiyotda bandlar ulushi yuqori darajada saqlanib qolayotgani inson kapitaliga tayangan hududiy rivojlanish modeli shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu holat hududlarning iqtisodiy salohiyati faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki mehnat resurslarining joylashuvi va ularning iqtisodiy jarayondagi rolga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Tarmoqlar kesimida kuzatilgan o'zgarishlar hududiy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi jarayonini yaqqol aks ettiradi. Masalan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushining nisbatan barqaror saqlanishi mazkur hududlarning agrar yo'nalishdagi salohiyatini tasdiqlaydi, biroq sanoat va xizmatlar sektorida ulushlarning sekin o'sishi iqtisodiy diversifikatsiya sur'atlari yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Aksincha, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida sanoat mahsuloti hamda bozor xizmatlari ulushining yuqori darajada saqlanishi ushbu hududlarda postindustrial iqtisodiy model elementlari shakllanayotganini anglatadi. Ayniqsa, Toshkent shahrida bozor xizmatlari ulushining 39,4 foizdan 36,9 foizga biroz qisqarishiga qaramay, u hali ham respublika miqyosida yetakchi bo'lib qolayotgani poytaxt iqtisodiyotining servis yo'nalishiga tayanayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ulushining dinamikasi

Hudud	Aholi ulushi			Iqtisodiyotda bandlar ulushi			Yalpi ichki mahsulot ulushi			Sanoat mahsuloti ulushi			Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi			Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi			Qurilish ishlari ulushi		
	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi	2022	2024	Farqi
O'zbekiston	100	100	-	100	100	-	100	100	-	100	100	-	100	100	-	100	100	-	100	100	-
Qoraqalpog'iston	5,6	5,4	0,2	5,2	5,3	-0,1	3,4	3,1	0,3	3,2	2,8	0,4	4,0	3,8	0,2	3,9	4,1	-0,2	4,0	3,3	0,7
Andijon	9,2	9,2	0	9,5	9,4	0,1	6,1	6,2	-0,1	9,8	10,3	-0,5	10,3	10,0	0,3	5,4	5,6	-0,2	5,2	4,9	0,3
Buxoro	5,6	5,5	0,1	5,7	5,6	0,1	5,2	4,9	0,3	4,9	4,8	0,1	9,3	8,9	0,4	8,1	10,2	-2,1	6,5	6,4	0,1
Jizzax	4,1	4,1	0	4,0	3,9	0,1	3,1	3,0	0,1	2,1	2,8	-0,7	6,7	6,4	0,3	3,9	4,6	-0,7	2,6	2,5	0,1
Qashqadaryo	9,7	9,7	0	8,8	9,1	-0,3	5,6	5,5	0,1	4,1	4,4	-0,3	9,2	9,5	-0,3	6,0	7,0	-1	6,0	5,9	0,1
Navoiy	2,9	2,9	0	3,0	3,0	0	7,5	8,1	-0,6	15,3	16,5	-1,2	4,5	4,7	-0,2	6,7	6,6	0,1	4,5	5,4	-0,9
Namangan	8,3	8,3	0	8,0	8,1	-0,1	4,6	4,7	-0,1	3,3	3,6	-0,3	7,6	7,7	-0,1	5,5	10,7	-5,2	5,1	5,1	0
Samarqand	11,4	11,5	-0,1	10,8	10,7	0,1	7,0	6,9	0,1	5,3	5,2	0,1	11,6	12,3	-0,7	7,1	5,7	1,4	6,8	5,9	0,9
Surxondaryo	7,8	7,9	-0,1	7,3	7,2	0,1	3,9	3,7	0,2	1,3	1,6	-0,3	7,6	7,8	-0,2	4,3	3,3	1	5,0	5,0	0
Sirdaryo	2,5	2,5	0	2,5	2,4	0,1	2,0	1,9	0,1	2,2	2,3	-0,1	3,5	3,4	0,1	4,6	2,2	2,4	2,5	1,8	0,7
Toshkent	8,3	8,3	0	8,8	8,8	0	10,5	10,1	0,4	17,0	15,7	1,3	9,7	9,5	0,2	13,4	14,4	-1	9,4	11,1	-1,7
Farg'ona	11,0	11,0	0	11,0	11,0	0	6,3	6,3	0	5,5	5,2	0,3	9,3	9,4	-0,1	5,8	4,2	1,6	6,6	6,1	0,5
Xorazm	5,4	5,4	0	5,4	5,5	-0,1	3,6	3,5	0,1	3,3	3,2	0,1	6,8	6,5	0,3	3,3	3,1	0,2	3,7	4,4	-0,7
Toshkent shahri	8,2	8,3	-0,1	10,0	10,0	0	16,6	19,3	-2,7	19,7	19,5	0,2	0,0	0,1	-0,1	21,4	18,1	3,3	25,2	26,8	-1,6

Manba: muallif tomonidan Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Investitsiyalar va qurilish ishlari ulushidagi o'zgarishlar hududiy iqtisodiy salohiyatning kelajakdagi o'sish trayektoriyasini baholashda muhim indikator sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Namangan viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar ulushining 5,5 foizdan 10,7 foizga keskin oshishi hududda yangi ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma obyektlari shakllanayotganidan dalolat beradi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Toshkent viloyatida investitsiyalar ulushining biroz pasayishi resurslarning respublika ichida qayta taqsimlanayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadval tahlili hududlarning iqtisodiy salohiyati o'rtasida barqaror farqlar saqlanib qolayotganini, biroq investitsiya oqimlari, sanoat ixtisoslashuvi va xizmatlar sektorining kengayishi orqali ayrim hududlarda "o'sish nuqtalari" shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu holat barqaror hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda differensial va salohiyatga asoslangan yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Quyidagi jadvalda 2021-2024 yillar davomida O'zbekiston hududlarida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlarining o'zgarishi kompleks tarzda tahlil qilinadi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston hududlarida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari dinamikasi

Hudud	2021		2024		Farqi 2024/2021	
	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%
O'zbekiston Resp.	456056,1	108,8	880198,5	106,5	+424142,4	-2,3
Qoraqalpog'iston	16630,4	107,4	24323,5	106,2	+7693,1	-1,2
Andijon	35935,3	98,7	90626,6	107,3	+54691,3	+8,6
Buxoro	20772,1	100,1	42243,7	106,4	+21471,6	+6,3
Jizzax	8731,8	110,4	24903,7	105,3	+16171,9	-5,1
Qashqadaryo	18771,9	115,4	39116,8	107,5	+20344,9	-7,9
Navoiy	73633,5	107,0	145615,0	108,3	+71981,5	+1,3
Namangan	14695,1	118,2	31696,2	108,1	+17001,1	-10,1
Samarqand	22834,3	111,0	45408,0	107,2	+22573,7	-3,8
Surxondaryo	6675,3	109,7	13819,8	106,6	+7144,5	-3,1
Sirdaryo	9813,3	118,5	20064,5	107,0	+10251,2	-11,5
Toshkent	83433,9	112,8	138555,4	106,4	+55121,5	-6,4
Farg'ona	27761,5	108,5	45896,1	104,3	+18134,6	-4,2
Xorazm	13658,1	117,2	28438,8	107,0	+14780,7	-10,2
Toshkent shahri	90211,9	116,2	171706,2	108,4	+81494,3	-7,8

Manba: muallif tomonidan Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari 2021-2024 yillarda O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi hajm jihatidan barqaror kengayib borganini ko'rsatadi. Respublika bo'yicha sanoat mahsuloti 2021-yildagi 456056,1 mlrd so'mdan 2024-yilda 880198,5 mlrd so'mga yetgan, ya'ni nominal hajmda keskin o'sish kuzatilgan. 2024-yilda Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati sanoat hajmi bo'yicha yetakchi guruhni shakllantiradi. Mazkur uch hududning yetakchiligi sanoat infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi, yirik korxonalar joylashuvi va yuqori kapital sig'imli ishlab chiqarish tarmoqlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi muhim jihat - hududlar bo'yicha o'sish sur'atlarining farqlanishi. Masalan, Andijon viloyatida 2022-yilda o'sish sur'atining 122,8 foizga chiqishi sanoat ishlab chiqarishida tezkor kengayish va modernizatsiya jarayonlari kuchayganini ko'rsatadi. Keyingi yillarda ham Andijonda o'sish 107 foiz atrofida saqlanib, 2024-yilda sanoat hajmi 90626,6 mlrd so'mga yetgan. Navoiy viloyatida 2024-yildagi 108,3 foizlik o'sish sur'ati va yuqori mutlaq hajm hududning sanoat ixtisoslashuvi hamda eksport yo'naltirilgan tarmoqlar salmog'i yuqoriligidan

dalolat beradi. Biroq ayrim hududlarda 2023-yildagi o'sish sur'atlarining 100 foizdan past bo'lishi sanoat tarkibining kon'yunkturaga sezgirligi va ishlab chiqarish barqarorligini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Mutlaq farq bo'yicha eng katta o'sish Toshkent shahrida, Navoiyda va Toshkent viloyatida kuzatiladi, bu hududlarda sanoat "o'sish nuqtalari" shakllanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, o'sish sur'atlari va hajm o'rtasidagi tafovutlar hududiy sanoat siyosatini differensial olib borish - ya'ni bir hududda diversifikatsiya va qayta ishlash zanjirlarini chuqurlashtirish, boshqa hududda esa infratuzilma va investitsiya jalb etish orqali sanoat bazasini kengaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari) hududlarning tabiiy-iqlim sharoiti, yer va suv resurslari ta'minlanganligi, agrotexnologik darajasi hamda logistika va qayta ishlash infratuzilmasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan bazaviy tarmoq hisoblanadi (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston hududlarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari) ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari dinamikasi

Hudud	2021		2024		Farqi 2024/2021	
	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%	mlrd so'm	%
O'zbekiston Resp.	317027,6	104,0	462839,2	103,1	+145811,6	-0,9
Qoraqalpog'iston	12340,9	103,5	17641,0	103,0	+5300,1	-0,5
Andijon	31582,5	104,5	46366,4	103,2	+14783,9	-1,3
Buxoro	29170,4	104,9	41112,2	102,9	+11941,8	-2,0
Jizzax	21202,8	104,1	29507,1	101,0	+8304,3	-3,1
Qashqadaryo	29232,8	101,9	43819,7	104,0	+14586,9	+2,1
Navoiy	15224,9	104,6	21530,0	103,3	+6305,1	-1,3
Namangan	23654,5	106,6	35811,1	104,2	+12156,6	-2,4
Samarqand	40329,6	103,2	56830,8	103,1	+16501,2	-0,1
Surxondaryo	23881,8	104,2	36152,3	102,8	+12270,5	-1,4
Sirdaryo	10485,2	103,7	15684,5	101,7	+5199,3	-2,0
Toshkent	31371,1	104,2	44505,3	101,8	+13134,2	-2,4
Farg'ona	28223,2	103,1	43715,3	104,8	+15492,1	+1,7
Xorazm	20327,9	103,4	30163,5	103,2	+9835,6	-0,2

Manba: muallif tomonidan Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari 2021-2024 yillarda respublika miqyosida o'sish sur'atlari barqaror (104,0%, 103,6%, 104,1%, 103,1%) bo'lib, tarmoqning makro darajadagi nisbiy barqarorligini bildiradi. Hududlar kesimida esa mutlaq o'sish bo'yicha yetakchi guruh shakllanadi: Samarqand (+16501,2 mlrd so'm), Farg'ona (+15492,1 mlrd so'm), Qashqadaryo (+14586,9 mlrd so'm), Andijon (+14783,9 mlrd so'm) va Toshkent viloyati (+13134,2 mlrd so'm). Ushbu hududlar, bir tomondan, aholining yuqori zichligi va mehnat resurslari salmog'i, ikkinchi tomondan, irrigatsiya tarmoqlari, intensiv bog'dorchilik-sabzavotchilik va chorvachilik yo'nalishlari hisobiga tarmoq ishlab chiqarishida "drayver hududlar" sifatida namoyon bo'lmoqda. Navoiy hududida mutlaq o'sish nisbatan pastroq (+6305,1 mlrd so'm) bo'lishi tarmoqning hududiy ixtisoslashuvi ya'ni sanoat yo'nalishi ustunligi bilan izohlanadi.

O'sish sur'atlari dinamikasi hududlar bo'yicha sifat jihatidan turlicha. Masalan, Namanganda 2021-yilda 106,6% bilan yuqori bazaviy o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda sur'atlar 105,0%, 104,4%, 104,2% atrofida barqarorlashgan, ya'ni kengayish davom etmoqda, biroq o'sish impulsi "normallashtirish". Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida 2024-yilda mos ravishda 104,0% va 104,8% o'sish sur'ati saqlanib, tarmoqning qayta ishlab chiqarish salohiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Ayni paytda, bir qator hududlarda 2024-yilda o'sish

sur'atlarining 101,0%-103,1% diapazonga tushishi (Jizzax - 101,0%, Sirdaryo - 101,7%, Toshkent viloyati - 101,8%, Samarqand - 103,1%) resurs cheklovlari (suv taqchilligi, iqlimiy xatarlar), ishlab chiqarishning mavsumiyliги hamda qiymat zanjiri bo'yicha qayta ishlash va saqlash infratuzilmasi yetishmovchiligi kabi omillar ta'sirini ko'rsatadi.

Hududiy kesimda xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlari konsentratsiyasi yaqqol ko'rinadi. Eng yirik hajm Toshkent shahrida, bu holat poytaxtda moliyaviy xizmatlar, savdo, transport, aloqa, IT va professional xizmatlar "markazlashuvi", shuningdek, aholining yuqori xarid qobiliyati va korporativ sektor ulushining kattaligi bilan izohlanadi. Viloyatlar ichida Toshkent viloyati, Farg'ona, Samarqand hamda Qashqadaryo kabi hududlar xizmatlar sektori bo'yicha tez kengayayotgan "ikkinchi darajali markazlar" sifatida ajralib turadi. Ayniqsa Samarqandda 2024-yilda o'sish sur'ati 115,4% bo'lib, turizm, savdo va logistika xizmatlari kengayishi hisobiga xizmatlar iqtisodiyoti kuchayayotganini anglatadi.

Hududiy rivojlanish salohiyatini kompleks baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda hududlarning tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy komponentlarini integrallashgan holda tahlil qilish metodologik zarurat hisoblanadi. Mazkur komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hududiy tizimning ichki muvozanatini belgilab, rivojlanish trayektoriyasining barqaror yoki nomutanosib shakllanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, hududiy salohiyatni baholashda ko'p mezonli integrallashgan indekslar tizimini qo'llash, omillar o'rtasidagi sinergiyani aniqlash hamda "o'sish nuqtalari"ni ilmiy asosda belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv hududiy rivojlanishni prognozlashda aniqlikni oshiradi, resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi hamda strategik rejalashtirishning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Natijada hududiy rivojlanish strategiyasi abstrakt maqsadlar majmuasi emas, balki hududning real salohiyati va cheklovlariga moslashgan, tizimli va moslashuvchan boshqaruv hujjatiga aylanadi.

Shuningdek, hududiy salohiyatni baholashga asoslangan strategik boshqaruv modeli hududlararo tafovutlarni kamaytirish, iqtisodiy o'sishning hududiy muvozanatini ta'minlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishning muhim institutsional vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv hududiy siyosatni differensiallashtirish, ya'ni har bir hududning ustun va cheklovchi omillaridan kelib chiqib alohida rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini yaratadi. Shu asosda, iqtisodiy diversifikatsiya, inson kapitalini rivojlantirish, infratuzilmaviy modernizatsiya va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan kompleks strategiyalar hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Demak, hududiy rivojlanish salohiyatini ilmiy asosda baholash va uning natijalarini strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish barqaror rivojlanish strategiyalarini samarali shakllantirishning fundamental sharti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish salohiyatini kompleks baholash barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishning asosiy metodologik sharti ekanligini ko'rsatdi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy komponentlari o'zaro uzviy bog'langan tizimni tashkil etib, ularning uyg'un rivoji hududiy iqtisodiy o'sishning barqarorligini belgilaydi. Tahlillar hududlar o'rtasida iqtisodiy ixtisoslashuv, investitsiya oqimlari, sanoat ishlab chiqarishi va agrar salohiyat bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur tafovutlar hududiy siyosatni yagona yondashuv asosida emas, balki salohiyatga asoslangan differensial strategik boshqaruv orqali amalga oshirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, hududiy salohiyatning dinamik xarakterga ega ekanligi uni muntazam monitoring qilish, indikatorlar tizimi asosida qayta baholab borish va strategik rejalashtirish jarayoniga integratsiya etish muhimligini ko'rsatadi.

Olingan ilmiy natijalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy salohiyatni integrallashgan indikatorlar tizimi asosida kompleks baholash mexanizmini joriy etish lozim;

hududlar kesimida tarmoqlar diversifikatsiyasini chuqurlashtirish va “o’sish nuqtalari”ni aniqlash orqali investitsiya siyosatini manzilli yo’naltirish zarur;

infratuzilmaviy modernizatsiya, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni rag’batlantirish orqali hududiy iqtisodiy salohiyatni faollashtirish maqsadga muvofiq;

hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish uchun differensial hududiy siyosat va ko’p darajali strategik boshqaruv mexanizmlarini keng qo’llash talab etiladi.

Mazkur takliflar hududiy rivojlanish salohiyatini ilmiy asosda baholash hamda barqaror rivojlanish strategiyalarini samarali shakllantirish orqali hududlarning raqobatbardoshligini oshirish va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o’sishini ta’minlashga xizmat qiladi. Avvalo, hududiy salohiyat komponentlarini integrallashgan indikatorlar tizimi asosida muntazam baholab borish resurslardan oqilona foydalanish, ustuvor tarmoqlarni aniqlash va hududiy rivojlanishning optimal trayektoriyasini belgilash imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish zanjirlarini kengaytirish va mahalliy “o’sish nuqtalari”ni shakllantirish orqali hududlarning ichki iqtisodiy faolligini rag’batlantiradi. Shu bilan birga, infratuzilmaviy modernizatsiya va inson kapitalini rivojlantirishga yo’naltirilgan strategik choralar hududiy mehnat bozori muvozanatini ta’minlab, innovatsion faoliyatni kengaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, differensial hududiy siyosatni joriy etish hududlar o’rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, iqtisodiy imkoniyatlarni hududlar kesimida muvozanatlashtirish hamda ichki migratsiya bosimini kamaytirish imkonini beradi. Strategik rejalashtirishda ko’p darajali boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish, ya’ni milliy, mintaqaviy va mahalliy darajadagi siyosatlarning o’zaro uyg’unligini ta’minlash hududiy rivojlanishning barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, hududiy salohiyatni ilmiy asosda baholashga tayanilgan strategiyalar iqtisodiy diversifikatsiya, ekologik muvozanat va ijtimoiy barqarorlikni bir butun tizim sifatida ta’minlab, milliy iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv o’sishiga multiplikativ ta’sir ko’rsatadi.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

European Commission. (2017). *7th report on economic, social and territorial cohesion*. European Commission, Directorate-General for Regional and Urban Policy.

Gosavi, A., Sharma, P., & Tiwari, R. (2016). *Sustainable development challenges in the Himalaya region: A review*. *Asian Journal of Environment & Development*, 23(4), 199–215.

Kern, K. (2011). *Governance for sustainable development in the Baltic Sea region*. *Journal of Baltic Studies*, 42(1), 21–35.

Milliy statistika qo’mitasi statistik to’plamlari

OECD. (2019). *OECD regional outlook 2019: Leveraging megatrends for cities and rural areas*. OECD Publishing.

OECD. (2020). *A territorial approach to the Sustainable Development Goals: Synthesis report*. OECD Publishing.

Ozkan, M., & Schott, J. (2013). *Regional cooperation and sustainable development in the Arctic*. *Polar Record*, 49(3),

Sachs, J. D. (2015). *The age of sustainable development*. Columbia University Press.

SIGMA. (2023). *The principles of public administration*. OECD - European Union.

UN-Habitat. (2022). *World cities report 2022: Envisaging the future of cities*. United Nations Human Settlements Programme (UN-Habitat).

United Nations General Assembly. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/70/1)*. United Nations.

World Bank. (2009). *World Development Report 2009: Reshaping economic geography*. The World Bank.

Кадилов, А., Ахмедиева, А., & Маъмуров, Б. (2023). Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўналишлари. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(3), 183–190. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp183-190>

Маъмуров Б.Х. (2016) Государственная поддержка инновационной активности системы предпринимательства // Технологии информационного общества. – С. 318-319.

Маъмуров, Б. (2023). Худудларда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш стратегияси ва истиқболлари. *Nashrlar*, 1(1), 326–329. <https://doi.org/10.60078/2023-vol1-iss1-pp326-329>